

## SHE'RDA HIS-TUYG'UNING TELEPORTATSION XUSUSIYATIGA DOIR

**Omonturdiyev Alibek Anvari**

TerDU magistranti

[alibekanvari@mail.ru](mailto:alibekanvari@mail.ru)

### **ANNOTATSIYA**

*She'r his-tuyg'uni teleportatsiya qilish xususiyatiga ko'ra o'zbek adabiyotshunosligida hali o'rganilmagan. Buning elementlari jahon adabiyotshunosligida ham deyarli kam uchraydi. Eng muhimi, "she'riyatda his-tuyg'uni teleportatsiya qilish" iborasi mutlaqo muallifga xos bo'lib, bu rakursdan badiiy matnni tadqiq qilish zamonaviy adabiyotshunoslik fani uchun ahamiyatlidir.*

*Kalit so'zlar: teleportatsiya, Charlz Fort, his-tuyg'uning teleportatsion xususiyati, "A" va "B" nuqta, badiiy matn, Usmon Azim, "tuyg'u ko'chirish".*

### **ABOUT THE TELEPORTATION FEATURE OF FEELINGS IN THE POEM**

#### **ABSTRACT**

*The poem has not yet been studied in Uzbek literary studies from the point of view of teleportation of feelings. These elements are almost rare in world literature. Most importantly, the phrase "teleportation of feeling in the poem" is completely unique to the author of the article, and the study of the literary text from this point of view is important for modern science.*

**Keywords:** teleportation, Charles Fort, Teleportation property of emotion, point "A" and "B", fiction, Usman Azim, "emotion transfer".

#### **KIRISH**

She'r tahlil qilinishiga ko'ra san'atning barcha turlaridan-da murakkabroq, badiiy ijodning so'z bilan tushuntirib bo'lmash, faqat va faqat his etish orqaligina anglash mumkin bo'lgan hodisasisidir. Shu xususiyat sababidanmi, she'riyat hamon yashab kelayotir.

Adabiyot nazariy jihatdan o'rganilib boshlangan davrlardan to XXI asrga qadar jahonning ko'plab afkor ahli: mutafakkirlari, shoir-yozuvchilar, adabiyotshunos munaqqid olimlari ayrim nazariy instrumentlarini tatbiq etgan bo'lsalar-da, mohiyatan

lahzaga aylangan mangulik, ta’bir joiz bo‘lsa, matn formatidagi his-tuyg‘u – she’mi tushuntirishning yakdil va barqaror usullarini fanga olib kirisha olmadi.

She’ni – tuyg‘u – tasvir – harakat – metafora – ohang – badiiy niyat va g‘oya o‘laroq jo‘n anglasak-da, uning tadrijiy ta’sirchanlik kuchini tasavvurimizda hosil bo‘lishi/bo‘lmasligi bilan farqlaymiz. Bu jarayonga “his-tuyg‘uning teleportatsion” (ushbu termin bizniki – A.O.) xususiyati orqali tekshirish ham, nazarimizda, ahamiyat kasb etadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLIGIYA**

O‘zi teleportasiya nima? Ushbu istiloh qanday vujudga kelgan? Dastavval, shu haqida biroz bayon etsak. Teleportatsiya (yunoncha tele – “uzoqda” va lotincha portare “tashuvchi”) ob’yekt (harakat) koordinatalarining faraziy o‘zgarishi bo‘lib, bunda ob’yekt trayektoriyasini vaqtning uzlusiz funksiyasi orqali matematik tarzda tasvirlab bo‘lmaydi. Bu atama 1931-yilda amerikalik yozuvchi Charlz Fort tomonidan g‘alati g‘oyib bo‘lish va ko‘rinishlarni, uning fikricha, umumiylara narsaga ega bo‘lgan paranormal hodisalarini tasvirlash uchun kiritilgan. Ushbu istiloh aksar hollarda bizga fantastik gipotezalar mahsuli kabi tasavvur uyg‘otsa-da, zamonaviy fan uning haqiqatga yaqin hodisa ekanligini, teleportatsiya – virtual olam sifatida, allaqachon mavjudligini, qolaversa, o‘z ma’nosida ham olamshumul kashfiyotlar arafasida turgani haqida xabar bermoqda.

Garchi jismning “A” nuqtadan xayol tezligida “safarbar” bo‘lib “B” nuqtaga yetib olishi (deylik, u qit’adan bu qit’aga) hozircha tasdig‘ini topmagan bo‘lsa-da, baayni terminning badiiy adabiyotda, xususan, shoirning (“A”) his-tuyg‘usini she’r orqali (she’r o‘qilayotgan, eshitilayotgan pallada!) she’rxon (“B”) tasavvurida hosil bo‘lish hodisasini inkor etib bo‘lmaydi! Bu hodisaning sodir bo‘lish holati ham qator faktorlarni taqozo etadi. Avvalo, she’riy matn his-tuyg‘uni teleportatsiya qilish xususiyatiga ega bo‘lishi, she’r iste’dod mahsuli bo‘lishi, she’riy matnda tasvir harakatga keltirilishi, o‘xshatishlar favqulodda original bo‘lishi, she’rning badiiy niyati adabiyotning azaliy va abadiy vazifalariga mutanosib bo‘lmog‘i va yana aqlbovar qilmas, tushuntirib, izohlab bo‘lmas savqi tabiiy xususiyatlarga ega bo‘lishi zarur, deb hisoblaymiz. Bu jarayonda zamon va makon tushunchasi u qadar ustuvor hisoblanmaydi.

### **NATIJALAR**

She’r o‘qilganda yoki tinglanda his-tuyg‘uni aynan shu tarzda teleportatsiya holatiga tushiradigan ba’zi she’rlardan parchalarni misol tariqasida keltirsak.

“...*Bir yulduz iltijo etdi tangriga, / Istig‘for so ‘zida nur bo‘yi anqib: / – Qanday soz – yotmoqlik yerning tagida – / Yomg‘irni eshitib uxlamoq baxti!*” (Usmon Azim. “Kuz” kitobidan). Mazkur satrlar favqulodda auditoriya tanlaydi. Uni ma’lum ma’noda

tayyorgarliksiz, ruhiy-hissiy beqaror holda o‘qib bo‘lmaydi, albatta. Ammo bu satrlar orqali teleportatsiya hodisasiga uchraydigan his-tuyg‘ular, dastavval kishi ko‘z o‘ngida ajabtoqur “salqin tun”, “odamning o‘zi tasavvur etgan Tangri”, “qora tuproq”, “bir kun kelib o‘lish”, “qaborda hammasidan qutulib, maroq ila rutubat aro yomg‘ir yog‘ishini “eshitib” yotish baxti”... kabi “kadr”larni gavdalantiradi. Bizningcha, o‘quvchi ushbu satrlarni anglash chog‘ida “yulduzlarning bu orzusiga” to‘satdan orzudosh bo‘ladi.

Lirk qahramon – hijronga duchor bo‘lgan yomg‘ir tilidan aytilajak satrlarga diqqat qiling. (Mahbubaga qarata): *Manzilga yetasan. Nogoh eshikda / Meni soyabondan silkib tashlaysan.* (Usmon Azim. “Yomg‘ir haqida ballada”) – deb yozg‘irishi yoki ayni Yomg‘irning yoriga: *Goho etagingga yetdim beozor, / Goho etagingga bebaxt surindim.* (Usmon Azim. “Yomg‘ir haqida ballada”) – tarzida sharhi hol etishi lirk qahramon his-tuyg‘ularini teleportatsiya qiladi. Shoir qalbidan o‘tgan emmotsional depsinishlar o‘quvchi shuurida, ko‘nglida aks sado beradi. Eshikka yetib, uyga (qalbga) kiritmaslik uchun shilta soyabonni (Yorning – Yomgir izhoridan saqlanish vositasini) siltab tashlash – Yomg‘irni – umuman, oshiq umrini, orzu-maqсадларини, uning sevgining eng baland zirvasini zabit etolmay chirpanayotgan ko‘nglini o‘zidan xoli etish, oshiq sevgisini shavqatsizlarcha rad etish holatining go‘zal badiiy ifodasini o‘quvchi “ko‘radi”. Satrlarda “etak va etik”, “bebaxt va beozor” so‘zlari tashigan ma’nolar ham o‘quvchi shuurida vizuallik kasb etmay qo‘ymaydi.

## MUHOKAMA

She’r yaxlit holda his-tuyg‘uning teleportatsion tabiatini yaqqol aks ettiradi. Hatto ba’zida, bir yo bir necha satr ham bu funksiani bajarishi mumkin. Bu o‘rinda “*Kim osmonni ketdi pichoqlab?*”; “*Maysalar, tovonim sizni sog‘inar, / Tog‘lar, viqoringiz qalbimda mangu*”; “*Maysa, rahmat, o‘sishni eslatib turding*”; “*Senga aytadigan so‘zim qolmadni, / Senga aytadigan jimliklarim – ko‘p*”; “*Yulduzlarni ko‘p ko‘rganman hayotimda, / Dengizdagagi yulduzlarni keldi quchgim*”... (Usmon Azim) kabi “o‘z taqdirini o‘zi hal etishga qodir bo‘lgan” satrlarni misol qilish mumkin.

## XULOSA

Ta’kidlash joizki, she’rni mazkur yo‘sinda o‘rganish o‘zbek adabiyotshunosligida shu kunga qadar tatbiq etilmagan bo‘lib, ushbu tajriba ilk marotaba qo‘llanayotir. She’r – his-tuyg‘uning teleportatsion xususiyatiga ko‘ra o‘rganilsa, nazarimizda, adabiyotshunoslikda “butun” she’rlarni (hatto satrlarni) saralab olish, farqlash, imkoniyati paydo bo‘ladi.

***ADABIYOTLAR RO'YXATI******Kitoblar***

1. Усмон Азим. *Сайланма: Шеърлар.* – Т.: Шарқ, 1995. – 432 б.
2. Усмон Азим. *Куз.* – Тошкент: Faфур Fулом номидаги адабиёт ва санъат нашириёти, 2001. – 448 б.
3. Усмон Азим. *Фонус.* – Тошкент: Шарқ, 2010. – 160 б.
4. Усмон Азим. *Юрак.* – Тошкент: Faфур Fулом номидаги адабиёт ва санъат нашириёти, 2009. – 348 б.
5. Усмон Азим. *Дарс.* – Т.: Faфур Fулом номидаги адабиёт ва санъат нашириёти, 1986. – 128 б.

***Vebsayt***

<https://minikar.ru/uz/ezoterika/kak-nauchitsya-magii-teleportacii-teleportaciya-eto-prosto/>